

ETNOGRAFIK TURIZMNING ASOSIY FAOLIYATLARI VA YO’NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI.

“Toshkent Turizm va Madaniy Meros Texnikumi”DM

Turizm fanlari o’qituvchisi

Sadinova Nozima Gulamovna

Annotatsiya: Mamlakatimizda turizm sohasining jadal rivojlanib borayotgani, xususan etnografik turizm yo’nalishining keng quloch yozayotgani quvonarlidir. Mazkur maqolada etnografik turizmning mazmun-mohiyati, uning asosiy yo’nalishlari va faoliyat shakllari tahlil qilinadi. O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan etnoturistik imkoniyatlar, jumladan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo viloyati va Farg‘ona vodiysi misolida o‘rganilgan. Shuningdek, Prezident farmonlari asosida mazkur yo’nalishga davlat darajasida e’tibor kuchayib borayotgani qayd etiladi. Etnoturizmning rivojlanishi nafaqat milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, balki mintaqalarda yangi ish o‘rinlari yaratish, infratuzilmani yaxshilash hamda iqtisodiy o‘rishni ta’minlashda ham muhim omil sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning boy madaniy merosi va xalq og‘zaki ijodini turizm orqali ommalashtirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: etnografik turizm, milliy urf-odatlar, madaniy meros, turistik faoliyat, xalq hunarmandchiligi, mahalliy aholi, infratuzilma, sayyohlik yo’nalishlari, iqtisodiy rivojlanish

KIRISH

Bugungi kunda turizm sohasi orqali mamlakatning nafaqat tarixiy, balki, moddiy va ma’naviy resurslaridan yanada samarali foydalanish ko‘paymoqda. Shu qatorda etnografik turizm ham jadal rivojlanib bormoqda. Yurtimizga turistlarni tashrifi maqsadidan- bilish mumkinki, bizni yurtimizning milliy taomlari, milliy liboslari, milliy raqsi, ma’rosim va an’analari, xalq me’morchiligi, xalq o‘yinlari, milliy urf-odatlariga qiziqish ortmoqda. Etnografik turizm bu-mahalliy aholining kundalik hayotini o‘rganishga qiziqqan sayohatchilar uchun mo‘ljallangan turizmning bir yo’nalishi hisoblanadi.

Prezidentimizning PF-87-sonli (15may, 2025) farmoniga muvofiq: ekoturizm, agroturizm, etnoturizm va ziyorat turizmini kengaytirish uchun viloyatlarda

infratuzilma va yirik loyihalar qo'llab quvvatlanmoqda. Bu farmonda alohida etnoturizm ham tilga olingani dolzarb masalalar yechimiga kirganini anglatadi.

Ma'lum qilinishicha, O'zbekistonga 2023-yili 6,6 mln, 2024-yilda jami 8,2 mln nafar chet el fuqorolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan. Bundan ko'rish mumkinki yildan yilga turistlar oqimi ko'tarilib borayotganligini quvonarli hol albatta.

Etnografik turizm quyidagi faoliyati yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

1. Ma'daniy va tarixiy merosni o'rganish
2. Mahalliy urf-odatlar va marosimlarda ishtirok etish
3. Milliy taomlar bilan tanishish
4. Hunarmandchilik va milliy san'at bilan tanishish
5. Mahalliy aholi bn bevosita muloqot qilish

O'zbekistonda etno-turizmning asosiy yo'nalishlari:

1. Xiva, Buxoro, Samarqand
 - Mahalliy aholining milliy liboslarini, qadimiy hunarlarini (zardo'zlik kulolchilik, misgarlik) kuzatish mumkin.
 - Ko'plab mehmon uylari mavjud bo'lib, mehmonlar bevosita mahalliy hayot tarzini boshdan kechiradi
 - Mahalliy oshxonani sinab ko'rish (palov, norin, somsa, chuchvara)
 2. Qoraqalpog'iston Respublikasi (Nukus, Mo'ynoq)
 - Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos madaniyati, baxshi san'ati, o'ziga xos to'y marosimlari
 - Savitskiy muzeyi orqali qaraqalpoq xalqining etnografik tarixi bilan tanishish
 3. Surxondaryo viloyati
 - Boysun mintaqasi-YUNESKO tomonidan nomzod etnografik hudud sifatida e'tirof etilgan.
 - Boysun xalqining an'anaviy liboslari, xalq og'zaki ijodi, "Boysun bahori" festivali mashhur
 4. Farg'ona vodiysi (Marg'ilon, Rishton, Qo'qon)
 - Ipakchilik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi-xalq hunarmandchiligining markazlari
 - Marg'ilonda ipak tayyorlash jarayonini bevosita kuzatish mumkin
- Biz etnoturizmni rivojlantishga erishsak bu iqtisodiy sohamizga foyda va qishloqlarda, tog'li hududlarda ham aholini ish bilan ta'minlashga-ish o'rinlari yaratiladi. Shuningdek, yurtimizning so'lim go'shalariga mashrutlar tuziladi va o'z-

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 07. July 2025

o'zidan infratuzilmaga ham ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Etnoturizmda boshqa dengiz kurort turizmlaridek katta hajmlar bilan raqobatlasha olmasa ham lekin ularga sarflanadigan valyuta nisbatan arzon, bu esa turistlarni ham hamyonbop, ham toza havoda dam olib, haqiqiy animatsiyon voqealarga guvoh bo'lib, xursand bo'lib ketishlarini ta'minlaydi.

Etnografik turizmni rivojlantirish mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini oshirib, yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turizmning ushbu turini rivojlantirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

- barcha ommaviy axborot vositalari : televideniye, radio, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlarida doimiy reklamalarni joylab borish;
- O'zbekiston turistik saytlariga etnografik turizmni namoyish etib beruvchi videoroliklar joylashtirish;
- turfirmalar bilan kelishilgan holda aynan etnografik turizmga mo'ljallangan turpaketlarni yaratish;
- mamlakatimiz viloyatlarining sayyohlik salohiyatidan kelib chiqqan holda har bir viloyatda “Turizm mahallasi” ni tashkil etish;
- O'zbekistonda etnografik turizm moddiy namunalari (milliy kiyim-kechak, qadimgi uy-ro'zg'or anjomlari, mehnat qurollari, arxeologik topilmalar, qo'lyozmalar va boshqalar) mujassamlashgan muzeylar barpo etish;
- milliy festivallar o'tkaziladigan paytga moslab turpaketlar yaratish; - festivallarda milliy urf-odatlarini sahnalashtirish;
- har bir mehmonxona va turistik umumiy ovqatlanish korxonalarida “Etnografik turizm burchagi” ni yaratish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Mirziyoyev Sh.M, “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. Toshkent “O'zbekiston” nashriyoti, 2022; B.168
2. Doniyorov A.X, Bo'riyev O', Ashirov A.A, “Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi”. Toshkent “Yangi nashr”, 2011; 9-25.
3. Абдимўминов О. Муллаев А. XX асрнинг 80-90 йилларида Ўзбекистон таърихий-маданий меросининг халқаро тарғиб этилиши. Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиш тарихи: Илмий тўплам. Тошкент, 2018, pp. – В. 183-187.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 07. July 2025

4. Болтабаев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А.
Туризм: назария ва амалиёт. Тошкент, 2018. pp. – Б. 154.

5. Алиева М.Т. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида). – **TARIX FANLARI** ISSN: 2181-2829
www.supportscience.uz/index.php/ojss Тошкент, 2019. pp. – Б. 78.



**Research Science and
Innovation House**